

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 7



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
7-son
dekabr, 2025

December 2025
Volume 3
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Raqamli iqtisodiyot
2. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
4. Inson kapitali iqtisodiyoti
5. Menejment va marketing
6. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
7. Moliya, kredit va investitsiya
8. Ekonometrika va statistika
9. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar
do'stligi universiteti)*

*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya
Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*

*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti,
Rossiya Federatsiyasi hukumati)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi
Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Ichki audit jarayonlarida tahlil va tekshiruv usullarining mohiyati va ularda axborot manbaalarining ahamiyati

Murodjon Shukurovich Mamatkulov, Saitmurat Masharip o'g'li Saitmuratov

Сущность методов анализа и проверки в процессах внутреннего аудита и важность источников информации в них

Маматкулов Муроджон Шукурович, Сaitмурат Машарип оглы Сaitмуратов

The essence of analysis and verification methods in internal audit processes and the importance of information sources in them

Murodjon Shukurovich Mamatkulov .Saitmurat Masharip ugli Saitmuratov

Received: December 8, 2025 Revised: December 13, 2025

■ Accepted: December 19, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Annotatsiya.** Mazkur maqolada ichki audit jarayonlarida qo'llaniladigan tahlil va tekshiruv usullarining mohiyati hamda ushbu usullarda axborot manbalarining ahamiyati ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida davlat sektorida, xususan Pensiya jamg'armasi tizimida o'tkazilgan ichki auditlar misolida tahlil va tekshiruv yondashuvlarining samaradorligi baholandi. Maqolada qayta hisoblash, hujjatli solishtirish, trend tahlili, intervyu va kuzatuv kabi usullarning aniqlangan moliyaviy kamchiliklar va ortiqcha to'lovlarni fosh etishdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, audit jarayonida foydalaniladigan axborot manbalarining huquqiy maqomi, ishonchlilik darajasi va axborot qiymati audit dalillarining sifatiga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ichki auditda tahliliy yondashuvlarni kuchaytirish va axborot manbalarini ustuvorlashtirish audit samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.
- **Kalit so'zlar:** Ichki audit, tahlil usullari, tekshiruv usullari, axborot manbalari, audit dalillari, pensiya jamg'armasi, riskka asoslangan audit, moliyaviy nazorat.
- **Аннотация.** В данной статье рассматривается сущность методов анализа и проверки, используемых в процессах внутреннего аудита, и важность источников информации в этих методах с научной и практической

точки зрения. В ходе исследования эффективность подходов к анализу и проверке оценивалась на примере внутренних аудитов, проведенных в государственном секторе, в частности, в системе пенсионных фондов. В статье раскрывается роль таких методов, как перерасчет, документальное сравнение, анализ тенденций, интервью и наблюдение, в выявлении выявленных финансовых недостатков и переплат. Также обосновывается влияние правового статуса, уровня достоверности и информационной ценности источников информации, используемых в процессе аудита, на качество аудиторских доказательств. Результаты исследования показывают, что усиление аналитических подходов во внутреннем аудите и приоритизация источников информации повышают эффективность аудита.

- **Ключевые слова:** Внутренний аудит, методы анализа, методы проверки, источники информации, аудиторские доказательства, пенсионный фонд, аудит на основе рисков, финансовый контроль.
- **Abstract.** This article studies the essence of the analysis and verification methods used in internal audit processes and the importance of information sources in these methods from a scientific and practical perspective. During the study, the effectiveness of analysis and verification approaches was assessed using the example of internal audits conducted in the public sector, in particular, in the Pension Fund system. The article reveals the role of methods such as recalculation, documentary comparison, trend analysis, interviews and observation in revealing identified financial deficiencies and overpayments. It also substantiates the impact of the legal status, reliability level and information value of information sources used in the audit process on the quality of audit evidence. The results of the study show that strengthening analytical approaches in internal audit and prioritizing information sources increases audit effectiveness.
- **Keywords:** Internal audit, analysis methods, verification methods, information sources, audit evidence, pension fund, risk-based audit, financial control.

KIRISH

Ichki audit jarayonida tahlil va tekshiruv usullari asosiy vositalardan biri bo'lib, auditorlik xulosalari va tavsiyalarining ilmiylik va asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Davlat sektorida faoliyat yuritayotgan muassasalarda, xususan Pensiya jamg'armasi kabi murakkab moliyaviy oqimlar ishtirok etadigan tuzilmalarda bu usullar orqali aniqlik va ishonchlilikka erishish mumkin. Tahliliy va tekshiruv yondashuvlari nafaqat mavjud hujjatlarining holatini o'rganish, balki ularni tahlil qilish, solishtirish va real faoliyat bilan mosligini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tahlil va tekshiruv usullari ayniqsa, moliyaviy axborotlar, hisob-kitoblar, pensiya tayinlash asoslari, hujjatlashtirilgan reestrlar va boshqa normativ bazalar bilan ishlaganda samarali natija beradi. Ular auditorlarga fakti tasdiqlovchi dalillarni shakllantirish, ziddiyatli holatlarni aniqlash va audit tavsiyalarini chuqur tahlil asosida ishlab chiqish imkonini beradi.

Ichki auditda bu usullarning zarurati shundaki, ular xatolik yoki buzilishning yuzaki sabablari emas, balki tizimli ildiz omillarini aniqlashga xizmat qiladi. Tekshiruv usullari faqat mavjud holatni qayd etsa, tahlil yondashuvi esa u sababli yuzaga kelgan oqibatlarni tahlil qiladi va muqobil yechimlar ishlab chiqishga asos yaratadi. Shu bois har bir audit tadbirida tahlil va tekshiruv usullari alohida e'tibor bilan qo'llanishi lozim.

Ichki audit jarayonining har bir bosqichida foydalaniladigan

axborot manbalari audit dalillarini shakllantirishda, aniqlikni ta'minlashda va xulosalarni asoslashda muhim rol o'ynaydi. Axborot manbasi – bu audit obyektining faoliyati, moliyaviy ko'rsatkichlari, huquqiy yoki tashkiliy jarayonlari haqida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ma'lumot beruvchi hujjat, bayon, elektron yozuv, kuzatuv natijasi yoki og'zaki izoh bo'lishi mumkin. Auditda ushbu manbalarining ishonchliligi, muqobilligi va dolzarbligi dalil sifatidagi kuchini belgilaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat va byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ichki auditning samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan.

A.R.Suvanqulov va A.A.Boliyev (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotda byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati tizimini takomillashtirish masalalari atroflicha yoritilgan. Mualliflar ichki auditning tashkiliy tuzilmasi, funksional vazifalari hamda uning davlat moliyaviy nazoratidagi o'рни va ahamiyatini tahlil qilgan. Tadqiqotda ichki audit faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash, auditorlarning mustaqilligini ta'minlash va audit jarayonlarida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, mualliflar ichki audit xizmatining samarali ishlashi byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona

foydalanishni ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. M.Haydarov (2013) ilmiy ishida byudjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil etishda risklarni baholashning mohiyati chuqur o'rganilgan. Muallif riskka asoslangan audit yondashuvining nazariy asoslarini ochib berib, ichki audit rejalashtirish jarayonida risklarni aniqlash va baholashning ahamiyatini asoslaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, risklarni to'g'ri baholash audit resurslarini samarali taqsimlashga, muhim muammoli sohalarni aniqlashga hamda nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv byudjet tashkilotlarida moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

I.J.Humantito (2016) tomonidan amalga oshirilgan doktorlik dissertatsiyasi hukumat ichki audit bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishda whistle-blowing (xabar berish) qarorlarining shakllanishiga bag'ishlangan. Tadqiqot Indoneziya tajribasi asosida olib borilgan bo'lib, ichki auditorlarning korrupsiya holatlariga munosabati, axloqiy dilemmalari va tashkiliy muhitning ushbu qarorlarga ta'siri tahlil qilingan. Muallif ichki audit tizimida shaffoflik, axloqiy me'yorlar va xodimlarni himoya qiluvchi mexanizmlar mavjud bo'lishi whistle-blowing samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Ushbu tadqiqot ichki auditning faqat moliyaviy nazorat vositasi emas, balki korrupsiyaga qarshi institutsional mexanizm sifatidagi rolini ochib beradi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ichki audit jarayonlarida tahlil va tekshiruv usullarining qo'llanilishi hamda axborot manbalarining ahamiyatini baholash uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy tahlil usullarining uyg'unlashgan shakliga asoslandi. Avvalo, nazariy tahlil usuli orqali ichki audit, tahlil va tekshiruv usullari hamda audit dalillariga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xorijiy tajribalar o'rganildi. Xususan, byudjet tashkilotlarida ichki auditni takomillashtirish, riskka asoslangan audit va whistle-blowing mexanizmlariga oid ilmiy ishlardan metodologik asos sifatida foydalanildi.

Amaliy tadqiqot qismida Pensiya jamg'armasi tizimida 2024-yil davomida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari natijalari tahlil qilindi. Bunda qayta hisoblash, hujjatli solishtirish, trend tahlili, monitoring, intervyu va kuzatuv kabi audit usullari qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil, solishtirish va guruhlash usullari orqali qayta ishlanib, aniqlangan kamchiliklar, ortiqcha to'lovlar va tavsiyalarining bajarilish darajasi baholandi. Shuningdek, audit jarayonida foydalanilgan axborot manbalari huquqiy maqomi, ishonchlilik darajasi va axborot qiymatiga ko'ra tasniflandi

hamda ularning audit xulosalarini shakllantirishdagi ahamiyati aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari mantiqiy umumlashtirish va tahliliy xulosalar chiqarish orqali yakunlandi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

2024-yil davomida Pensiya jamg'armasi tizimida o'tkazilgan ichki audit tadbirlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, tahlil va tekshiruv usullari orqali aniqlangan kamchiliklar soni umumiy aniqlangan muammolarning 64 foizini tashkil etgan. Masalan, Mirzo Ulug'bek tumani bo'limida o'tkazilgan tekshiruvda 11 ta pensiya to'loviga oid hujjatlarda stav noto'g'ri ko'rsatilganligi aniqlangan. Ushbu holatda qayta hisoblash va hujjatli taqqoslash usullari asosiy rol o'ynagan. Oqibatda 587 million so'mlik ortiqcha to'lovlar aniqlanib, qayta ko'rib chiqish choralari belgilandi. Shuningdek, Shayxontohur tumani Pensiya bo'limida o'tkazilgan auditda 9 ta pensiya tayinlash holatida ikki xil to'lov stavkasi qo'llanilgan. Ushbu kamchilikni aniqlashda trend tahlili va solishtirish yondashuvi qo'llanildi. Audit guruhi so'nggi uch yil davomida bir xil shaxsga berilgan pensiya miqdorini yillik o'sish va pasayish dinamikasi orqali tahlil qilib, sistematik xatoliklar borligini fosh qildi. Bu esa tahlil usullarining real muammolarni aniqlashdagi kuchini yaqqol namoyon etdi. Tahlil va tekshiruv usullari ayniqsa, moliyaviy axborotlar, hisob-kitoblar, pensiya tayinlash asoslari, hujjatlashtirilgan reestrlar va boshqa normativ bazalar bilan ishlaganda samarali natija beradi. Ular auditorlarga fakti tasdiqlovchi dalillarni shakllantirish, ziddiyatli holatlarni aniqlash va audit tavsiyalarini chuqur tahlil asosida ishlab chiqish imkonini beradi.

Ichki auditda bu usullarning zarurati shundaki, ular xatolik yoki buzilishning yuzaki sabablari emas, balki tizimli ildiz omillarini aniqlashga xizmat qiladi. Tekshiruv usullari faqat mavjud holatni qayd etsa, tahlil yondashuvi esa u sababli yuzaga kelgan oqibatlarni tahlil qiladi va muqobil yechimlar ishlab chiqishga asos yaratadi. Shu bois har bir audit tadbirida tahlil va tekshiruv usullari alohida e'tibor bilan qo'llanishi lozim.

Tahlil va tekshiruv usullari ichki auditning nafaqat nazorat vositasi, balki tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatini chuqur tushunishga xizmat qiluvchi strategik vosita sifatida qaralishi zarur. Pensiya jamg'armasi auditlarida ushbu yondashuvlar asosida erishilgan natijalar ichki auditning boshqaruvga ta'sirchanligini oshiruvchi muhim omilga aylanganini ko'rsatmoqda.

Ichki audit amaliyotida tahlil va tekshiruv usullari keng ko'lamli axborotni samarali qayta ishlash, moliyaviy va tashkiliy buzilishlarni aniqlash hamda audit xulosalarining

asoslanganligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar muayyan ma'lumotlar bazasiga tayanadi va auditorning kuzatuv, solishtirish, hisob-kitob qilish, baholash va tavsiyalar berish kabi vazifalarini ilmiy yondashuv asosida tashkil etadi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari mavjud bo'lib, ular turli sharoitdagi audit obyektlariga nisbatan mos qo'llaniladi.

Amaliyotda, ayniqsa Pensiya jamg'armasi auditlarida axborot manbalarining turlicha shakl va sifatda bo'lishi kuzatiladi. Masalan, Shayxontohur tumani bo'limida 2024-yil 1-yarim yillik auditda "ish staji to'g'risidagi ma'lumotnoma"da keltirilgan ma'lumotlar bilan elektron pensiya reestrtdagi ko'rsatkichlar orasida tafovut aniqlangan. Shunga qaramay, bu ikki manba huquqiy maqomi va ishonchlilik darajasi jihatidan farq qiladi: reestrlar elektron tizimga asoslangan rasmiy hujjat bo'lsa, skanlangan ma'lumotnoma – birlamchi hujjatga asoslangan, biroq yangilanmagan shaklda bo'lgan. Axborot manbalari audit dalilining sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2023-yil 14-avgustdagi 377-son qarorida ham ko'rsatib o'tilgan: "Audit dalillari auditning natijalari asosini tashkil etadi va ularni shakllantirishda auditor turli manbalarni tahlil qilgan holda, manbaning ishonchliligi, aniqligi va muvofiqligini baholashi lozim". Amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, tahlil uchun to'plangan axborot manbalari nafaqat dalil, balki audit xulosasining shakllanishi uchun asos bo'ladi. 2024-yil Yashnobod tumanida kuzatuv natijasida fuqaroning pensiya to'lovlarini ikki marta amalga oshirilgani aniqlangan. Hujjatlarda bu ikki to'lov alohida ko'rsatilgan, lekin xuddi shu shaxsga tegishli bo'lgani intervyu va joyida kuzatuv orqali aniqlangan. Bu holatda kuzatuv - audit dalili

sifatida yuqori axborot qiymatiga ega bo'lsa-da, huquqiy maqom jihatidan yordamchi hisoblanadi.

Umuman olganda, tahlil va tekshiruv usullari ichki auditni statik holatdan dinamik tahliliy faoliyatga aylantirish imkonini beradi. Har bir usul audit natijalarining aniqligi, dalilga asoslanganligi va boshqaruvga ta'siri jihatidan o'ziga xos hissa qo'shadi. Ushbu usullarni kompleks qo'llash esa nafaqat qonunbuzarliklarni aniqlash, balki tizimli zaifliklarni tahlil qilish va oldini olish choralari ishlab chiqish imkonini beradi.

Ichki auditda tahlil va tekshiruv usullarining samaradorligini baholash orqali ularning qaysi biri ko'proq amaliy foyda berishini, qanday holatlarda qanday yondashuvlar samaraliroq ekanini aniqlash mumkin. Amaliyotda bu usullarning qo'llanish chastotasi, aniqlangan xatoliklar ulushi va moliyaviy ko'rsatkichlar asosida taqqoslab baholash ularga bo'lgan ehtiyoj va ustuvorlikni belgilaydi. Pensiya jamg'armasida 2024-yil davomida o'tkazilgan ichki audit tadbirlarida ushbu usullar tizimli qo'llanildi va ularning amaliy natijalari statistik jihatdan tahlil qilindi.

Yil davomida Shayxontohur, Uchtepa, Yashnobod, Mirzo Ulug'bek, Olmazor va Yakkasaroy tumanlarida amalga oshirilgan audit tekshiruvlari asosida aniqlangan kamchiliklar, ortiqcha to'lovlar va samaradorlik darajasi tahlil qilindi. Misol uchun, Uchtepa tumanida qayta hisoblash usuli orqali 1,1 mlrd so'mlik ortiqcha to'lovlar aniqlangan bo'lsa, Mirzo Ulug'bek tumanida trend tahlili yordamida 740 million so'mlik noto'g'ri hisoblangan pensiya miqdori aniqlangan. Quyidagi 1-jadvalda 2024-yilda Pensiya jamg'armasi tizimida qo'llanilgan tahlil va tekshiruv usullarining amaliy samaradorlik ko'rsatkichlari umumlashtirib berilgan.

1-jadval.

Bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitob hujjatlari va ularning tahlili

TAHLIL/ TEKSHIRUV USULI	QO'LLANGAN HOLATLAR SONI	ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR ULUSHI (%)	ANIQLANGAN ORTIQCHA TO'LOVLAR (MLRD SO'M)	TAVSIYA ASOSIDA TUZATILGAN HOLATLAR (%)
Qayta hisoblash	46 ta	61%	6,2 mlrd	84%
Hujjatli solishtirish	38 ta	54%	4,7 mlrd	79%
Intervyu va kuzatuv	29 ta	73%	3,1 mlrd	66%
Trend tahlili	17 ta	36%	2,8 mlrd	58%
Monitoring va gorizonttal solishtirish	22 ta	47%	2,5 mlrd	62%

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, eng yuqori samaradorlikka ega bo'lgan usul – qayta hisoblash bo'lib, u nafaqat ko'plab xatoliklarni aniqlagan, balki tuzatishlar darajasi ham yuqori bo'lgan. Ayniqsa moliyaviy hujjatlar bilan ishlashda bu usul auditor uchun asosiy vosita hisoblanadi. Intervyu va kuzatuv usullari esa ko'pincha yashirin yoki hujjatlarda aks etmagan muammolarni aniqlashda foydali bo'lgan. Shu bilan birga, bu usullar tavsiyalarining bajarilishida nisbatan pastroq natija ko'rsatgan, bu esa ularning subyektiv xususiyati bilan izohlanadi.

Amaliy tajriba tahlil va tekshiruv usullarining birgalikda va uzviy qo'llanilishi orqali audit jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Har bir usul alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning tanlovi audit obyektining xususiyati, mavjud hujjatlarining sifati va auditorlik strategiyasiga qarab belgilanadi. Shu bois, kelgusida har bir audit jarayoni uchun moslashtirilgan usullar kombinatsiyasini shakllantirish ichki audit samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ichki audit jarayonining har bir bosqichida foydalaniladigan axborot manbalari audit dalillarini shakllantirishda, aniqlikni ta'minlashda va xulosalarni asoslashda muhim rol o'ynaydi. Axborot manbasi – bu audit obyektining faoliyati, moliyaviy ko'rsatkichlari, huquqiy yoki tashkiliy jarayonlari haqida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ma'lumot beruvchi hujjat, bayon, elektron yozuv, kuzatuv natijasi yoki og'zaki izoh bo'lishi mumkin. Auditda ushbu manbalarining ishonchligi, muqobilligi va dolzarbligi dalil sifatidagi kuchini belgilaydi.

ichki auditda axborot manbalarining axborot qiymati va huquqiy maqomi ularning audit jarayonidagi og'irligini belgilab beradi. Har qanday audit xulosasi kamida bitta yuqori darajadagi ishonchli manbaga asoslangan bo'lishi zarur. Shu bilan birga, kam ishonchli, biroq muhim aniqlik kirituvchi yordamchi manbalar bilan asosiy dalillar bir-birini to'ldirishi kerak. Bu yondashuv auditorni xolislik, aniqlik va ishonchlilik tamoyillari asosida harakat qilishga undaydi va audit xulosalarining boshqaruvga bo'lgan ta'sirini oshiradi.

Ichki audit jarayonida axborot manbalarining turlari, ularning mazmuni va audit uchun axborot qiymatini aniqlab olish muhim bosqich hisoblanadi. Har qanday audit faoliyati dalillarga asoslanadi va bu dalillar turli manbalar orqali shakllanadi. Shu sababli auditor audit obyektida mavjud bo'lgan barcha manba turlarini aniqlashi, ularni tasniflashi va ustuvorlik darajasiga qarab saralashi lozim bo'ladi. Bu esa dalilga asoslangan, obyektiv va aniq audit xulosalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Amaliyotda manba turlarining xilma-xilligi auditorlik jarayonini murakkablashtiradi. Pensiya jamg'armasining 2024-yil 1-yarim yillik ichki audit hisobotlariga asoslanadigan bo'lsak, tuman bo'limlarida o'tkazilgan auditlarda 15 dan ortiq turdagi axborot manbalaridan foydalanilgan. Ular orasida

pensiya to'lov reestrlari, ish staji haqida ma'lumotnomalar, elektron platformalar, fuqarolarning yozma va og'zaki murojaatlari, xizmat yozishmalari, ichki buyrug'lar va tashqi statistika ma'lumotlari mavjud bo'lgan.

Yakkasaroy tumani bo'yicha o'tkazilgan ichki audit jarayonida auditorlar tomonidan jami 18 ta axborot manbasi aniqlangan bo'lib, ushbu manbalar audit dalillarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Aniqlangan manbalar tavsifiga ko'ra uchta toifaga ajratilgan: asosiy, yordamchi va nazorat manbalari. Asosiy manbalar – bu audit obyektining moliyaviy yoki tashkiliy faoliyatini rasmiy tarzda aks ettiruvchi va qonuniy kuchga ega bo'lgan hujjatlar bo'lib, ularga pensiya tayinlash haqidagi buyruqning elektron nusxasi, to'lov reestrlari va hisob-kitob varaqalari kiradi. Yordamchi manbalar sifatida esa stajga oid skan qilingan hujjatlar, xodimlarning tushuntirish xatlari, fuqaro murojaatlari hamda arxivdan olingan hujjatlar ishlatilgan. Bu turdagi ma'lumotlar asosiy hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan holatlarni tasdiqlaydi yoki izohlaydi. Nazorat va tasdiqlovchi manbalar esa audit obyektida hujjatlarda aks etmagan yoki shubhali holatlarni aniqlash va ularni dalillashda ishlatiladi. Bunga joyida amalga oshirilgan kuzatuv natijalari, xodimlar bilan o'tkazilgan intervyular va mustaqil statistik ma'lumotlar misol bo'la oladi. Mazkur tasnif asosida manbalar ustuvorlik darajasiga qarab saralandi va ularning har biri audit xulosalarining asoslanish darajasiga ko'ra baholandi.

Shayxontohur tumanida o'tkazilgan auditda pensiya stajlari bo'yicha aniqlangan farqlarni tasdiqlash uchun bir necha manba o'zaro solishtirildi. Masalan, elektron reestrda 28 yil deb ko'rsatilgan staj fuqaroning ma'lumotnomasida 31 yil deb qayd etilgan. Bu farqni aniqlashda intervyu usuli va arxiv yozuvlari yordamga keldi. Natijada, asosiy manba bo'lgan elektron reestr huquqiy kuchga ega bo'lganligi sababli ustuvor manba sifatida tanlandi, boshqa manbalar yordamchi yoki izohlovchi rol o'ynadi.

Uchtepa tumani bo'yicha olib borilgan auditda esa aksincha holat yuz berdi. Pensiya tayinlash bo'yicha elektron faylda noto'g'ri stavka belgilangan bo'lib, bu holat shikoyat asosida tekshirib chiqildi. Xizmat yozishmalari va eski arxiv ma'lumotlari asosida elektron ma'lumotlar yangilandi va 486 million so'mlik ortiqcha to'lov to'xtatildi.

Manbalarni ustuvorlashtirishda auditorlar bir nechta amaliy mezonlarga tayandilar. Birinchidan, huquqiy kuchi yuqori bo'lgan, ya'ni qonuniy asosda tasdiqlangan va normativ hujjatlar bilan bog'liq manbalar ustuvor deb topildi. Ikkinchidan, yaratilish usuli ham muhim ahamiyat kasb etdi: avtomatik generatsiya qilingan ma'lumotlar (masalan, elektron reestrlar) inson aralashuvi orqali tuzilgan ma'lumotlarga nisbatan kamroq subyektivlikka ega bo'lganligi sababli ishonchliroq deb baholandi. Uchinchi mezon sifatida manbaning dolzarbligi va yangilanish davri e'tiborga olindi

- yangi sanaga ega bo'lgan manbalar eskilariga nisbatan ustuvor hisoblandi. To'rtinchidan, manbaning mustaqilligi - ya'ni u audit obyektidan tashqarida shakllanganmi yoki ichki tizimda yaratilganmi - ham muhim mezonlardan biri bo'lib, tashqi va mustaqil manbalar (masalan, Statistika qo'mitasi hisobotlari) ichki subyektiv hujjatlarga nisbatan yuqori baholandi. Shunday qilib, axborot manbalarining turini aniqlash, ularni tasniflash va ustuvorlashtirish orqali auditorlar audit jarayonida ishonchli va obyektiv qarorlar qabul qilishga erishdi. Bu esa ichki auditning amaliy samaradorligini oshirdi, tavsiyalarining boshqaruvga ta'sirini kuchaytirdi va xatoliklar ehtimolini kamaytirdi. Mazkur yondashuvning tizimli tatbiqi esa ichki audit sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

Ichki auditda axborot manbalaridan foydalanish jarayonida ko'plab tizimli va amaliy muammolar mavjud bo'lib, ular audit natijalarining sifati va dalillarning ishonchliligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2024-yil davomida Pensiya jamg'armasi tizimida o'tkazilgan auditlar ushbu muammolarning real ko'rinishlarini ochib berdi. Dastlabki bosqichda auditorlar ko'plab axborot manbalarining mavjud emasligi, ayrim holatlarda esa bir xil ma'lumotlarning turli shakllarda bo'lishi bilan duch kelishdi. Uchtepa tumani bo'yicha o'tkazilgan auditda elektron reestrda pensiya tayinlash ma'lumotlari bilan qog'oz shaklidagi hujjatlar orasida farqlar aniqlangan. Qayd etilgan staj muddati va to'lov miqdorlari o'rtasidagi tafovutlar 374 million so'mlik ortiqcha to'lovlarga olib kelgani qayd etildi.

Axborot manbalaridan foydalanishdagi asosiy muammolar - ma'lumotlarning eskirganligi, subyektivligi, noaniqligi va tizimlashtirilmagan shaklda bo'lishi - ichki audit samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammolarni bartarafetish uchun esa axborot manbalarini raqamlashtirish, ularni dolzarb holatda saqlash va baholashning obyektiv tizimlarini joriy etish zarur. Shu tarzda auditorlik faoliyatining dalilga asoslanganlik darajasi ortadi, xatoliklar kamayadi va boshqaruvga ta'sirchanlik kuchayadi.

Ichki audit jarayonida qanday usuldan foydalanish - bu faqat auditorning tajribasiga emas, balki obyektning xususiyatiga, ma'lumot manbalarining mavjudligiga va auditning maqsadiga bog'liq ravishda belgilanishi kerak. Har bir usul - ekspert baholash, qayta hisoblash, intervyu yoki hujjat tahlili - o'zining kuchli va zaif jihatlarga ega. Shu sababli, auditda foydalaniladigan usullar oldindan belgilangan mezonlar asosida tanlanishi zarur. Audit obyekti kompleks bo'lsa yoki faoliyati noaniqlik bilan bog'liq bo'lsa, kombinatsiyalangan usullar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

2024-yil Pensiya jamg'armasining Shayxontohur va Uchtepa tuman bo'limlarida o'tkazilgan auditlar shuni ko'rsatdiki, qayta hisoblash va hujjat tahliliga tayanilgan auditlarda moliyaviy aniqlik oshgan, biroq jarayonning ma'naviy-axloqiy

va tashkiliy jihatlari e'tibordan chetda qolgan. Shu sababli intervyu va ekspert baholash usullari ham birgalikda qo'llanilishi lozimligi aniqlangan. Demak, mezonlar quyidagicha: audit obyekti faoliyatining murakkablik darajasi, mavjud ma'lumotlarning sifati, subyektivlik darajasi, va dalillarni olish imkoniyati.

Ichki audit jarayonida dalil yig'ish usullarini samarali tanlash uchun obyektning funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zarur. Bu jarayonda "Uyg'unlik matritsasi" konsepsiyasi samarali vosita sifatida taklif etiladi. Ushbu yondashuv asosida audit obyektining mazmuni (moliyaviy, tashkiliy, huquqiy, resursiy) va undagi mavjud muammolarning tavsifi (aniqlik, shaffoflik, subyektivlik, xavf darajasi) hisobga olinadi. Shunga mos holda audit usuli tanlanadi va dalil yig'ish strategiyasi shakllantiriladi. Bu metod audit usullarini avtomatik tanlash imkonini beradi, resurslarni tejaydi va xulosa sifatini oshiradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki audit jarayonlarida tahlil va tekshiruv usullarining kompleks va tizimli qo'llanilishi audit samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, Pensiya jamg'armasi tizimida amalga oshirilgan auditlar misolida qayta hisoblash, hujjatli solishtirish va trend tahlili usullari moliyaviy kamchiliklar va ortiqcha to'lovlarni aniqlashda eng yuqori natija bergan.

Ichki auditda axborot manbalari audit dalillarining sifatini belgilovchi asosiy omil bo'lib, ularning huquqiy maqomi, ishonchliligi va dolzarbligi audit xulosalarining asoslanganligini ta'minlaydi. Asosiy, yordamchi va nazorat manbalarini to'g'ri tasniflash hamda ustuvorlashtirish auditorlarga xolis va obyektiv qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot ichki auditni faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlovchi strategik vosita sifatida rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Tahlil va tekshiruv usullarini axborot manbalariga tayangan holda chuqur qo'llash ichki auditning boshqaruvga ta'sirchanligini oshiradi, moliyaviy intizomni mustahkamlaydi hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tizimli xatoliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Murodjon Shukurovich Mamatkulov Ma'mun universiteti professori, i.f.d. / Муроджон Шукурович Маматкулов, профессор Университета Мамуна, д.э.н. / Murodjon Shukurovich Mamatkulov, professor at Mamun University, Doctor of Economics

► murodjon.sh@mamun.uz

■ 0000-0003-0700-5528

2. Saitmurat Masharip o'g'li Saitmuratov Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'qituvchisi / Сaitмурат Машарип оглы Сaitмуратов – преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни / Saitmurat Masharip oglu Saitmuratov – lecturer at the Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni
► saitmurat@urdu.uz

■ 0009-0008-2048-319X

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Sh.Mamatkulov, A.Toshtemirov. Analysis of the effectiveness of budget expenditure control systems. Web of Scientists and Scholars//Journal of Multidisciplinary Research. 2. – №9. 2024. – p. 4-13
2. Суванкулов А.Р., Болиев А.А. Бюджет ташкилотларида ички аудит хизмати тизимини такомиллаштириш. Евразийский журнал академических исследований, №2 (2022), 560-568 б.
3. Haydarov M. Byudjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil qilishda risklarni baholash mohiyati, Iqtisod va Moliya №2, 2013y. <https://cyberleninka.ru>
4. Humantito I.J. Whistle-blowing Decisions in Responding to Organisational Corruption in Government Internal Audit Units in Indonesia: Diss. PhD. – Warwick: University of Warwick, 2016.
5. Ide Juang Humantito. Whistle-blowing Decisions in Responding to Organisational Corruption in Government Internal Audit Units in Indonesia: Diss. PhD. – Warwick: University of Warwick, 2016.

Moliya, kredit va
investitsiya

Финансы, кредит
и инвестиции

Finance, credit and
investment